

**«Tasdiqlayman»**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Transport vaziri**  
**I.Maxkamov**  
 2024-yil

**O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasining 2024-yil uchun**  
**ISH REJASI**

T/r	Chora-tadbirlar	Ijro muddati
<b>Norma ijodkorligi masalalari bo'yicha:</b>		
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 iyundagi PF-94-son Farmonining 6-ilova 3-bandida belgilangan Transport vazirligining funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish.	2024-yil 20-mart
2	Inspeksiya va uning hududiy bo'limmalar xodimlarining idoraviy formalii kiyim namuna-etalonlarini tasdiqlash bo'yicha tegishli hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil 15-mart
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 iyundagi PF-94-son Farmoni qabul qilinishi munosabati bilan sohaga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni hatlovdan o'tkazish, zaruratga ko'ra normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha belgilangan tartibda ishlarni amalga oshirish.	2024-yil davomida
4	O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksga tegishli o'zgartirishlar kiritish.	2024-yil iyun
<b>Soha faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha:</b>		
5	Avtomobil, temir yo'l, suv, elektr transporti va metropolitenda tashish xavfsizligini ta'minlash yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish.	2024-yil davomida
6	Yuk avtomobillarining vazn va hajm parametrlarini nazorat qilish maqsadida respublikaning har bir hududida tezkor nazorat tadbirlari o'tkazilishini ta'minlash va natijasi bo'yicha hisobot kiritish.	Har oyda ikki marotaba
7	Temir yo'l transporti korxonalari va tashkilotlarida temir yo'llarda poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlashga va temir yo'lda tashishlar xavfsizligini ta'minlaydigan texnik vositalarning ishonchliligin oshirishga qaratilgan kompleks profilaktika-tadbirlarini o'tkazish.	2024-yil davomida
8	Yuqori tezlikdagi temir yo'l uchastkalarida yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligi darajasini oshirishga qaratilgan faoliyat yuzasidan manfaatdor vazirliklar va idoralar, temir yo'l transporti korxonalari va boshqa tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash bo'yicha Idoralararo komissiyasi ishini tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasidagi asosida tashkil qilish.	Har oyning 10-sanasida

T/r	Chora-tadbirlar	Ijro muddati
9	Harakatdagi temir yo'l tarkibi va infratuzilmasi obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish talablarining mazmun-mohiyatini tushuntirish bo'yicha mas'ul vazirlik, idora hamda boshqa tashkilotlar vakillari ishtirokida reja-grafik asosida muntazam ravishda o'quv seminarlari o'tkazilishini, ular o'rtasida targ'ibot ishlari olib borilishini ta'minlash.	Har oyda, reja-grafik asosida
10	Yuk va yo'lovchilarni tashishda haydovchilarining hamda lokomotiv brigadalarini ishchilarining mehnat va dam olish rejimini nazorat qilish.	2024-yil davomida
11	Avtomobil yo'llari va sun'iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta'mirlashda shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini nazorat qilish.	2024-yil davomida
<b>Xodimlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash, attestatsiyadan o'tkazish, xalqaro tajribani o'r ganish masalalari bo'yicha:</b>		
12	Transport nazorat inspeksiyasining yo'l qurilish ishlari nazorat qilish inspektorlarini Xalqaro muhandis-konsultant Federatsiyasi (FIDIC) talablari asosida o'quv kurslari tashkil etish va o'qitish.	2024-yil davomida
13	Malakasini oshirish muassasalari bilan kelishilgan holda Transport nazorat inspeksiyasining avtomobil transporti, temir yo'l transporti va yo'l qurilish inspektorlarini malakasini oshirish, o'qitish va qayta tayyorlash.	2024-yil 30-noyabr
14	Transport nazorat tizimida olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada yuksaltirish, xorijiy davlatlarning sohaga oid ilg'or tajribalarini tatbiq etish maqsadida xodimlarni tajriba almashish uchun xorijiy davlatlarga xizmat safariga yuborish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda amalga oshirish.	2024-yil davomida
15	Transport nazorati inspeksiyasi mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish.	2024-yil iyun – dekabr
16	Hududiy bo'linmalarda ma'muriy amaliyot faoliyatiga mas'ul bo'linma tashkil etish.	2024-yil avgust
<b>Vazirlik va idoralar, korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish masalalari bo'yicha:</b>		
17	Transport nazorati inspeksiyasi va Transport sohasi kadrlarini, qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolash.	2024-yil aprel
18	Transport nazorati inspeksiyasi va Transport universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolash.	2024-yil may
19	Transport nazorati inspeksiyasi va Xalqaro muhandis-konsultant Federatsiyasi (FIDIC) assotsiatsiyalari o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolash.	2024-yil sentabr

T/r	Chora-tadbirlar	Ijro muddati
<b>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish masalalari bo'yicha:</b>		
20	Temir yo'l transporti va metropolitenda nazorat sohasini raqamlashtirish maqsadida "Xavfni tahlil etish va raqamli nazorat" axborot tizimini ishlab chiqish.	2024-yil may
21	Harakatdagi temir yo'l tarkibi va infratuzilmasi obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish axborot tizimini ishlab chiqish hamda ishgaga tushirish.	2024-yil noyabr
22	Axborot tizimining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal bilan integratsiya qilinishini hamda Ma'muriy reglamentga muvofiq YIDXP orqali davlat xizmatlari joriy etilishini ta'minlash.	2024-yil oktabr
23	Transport nazorati inspeksiyasi xodimlari faoliyati samaradorligini aniqlash maqsadida KPI dasturini ishlab chiqish.	2024-yil 1-dekabr
24	Yo'l-qurilish ishlarini nazorat qilish sohasida, yo'l qurilishi obyektlarini ro'yxatga olishdan boshlab, foydalanishga qabul qilishgacha nazorat ishlari barcha jarayonlarini raqamlashtirilishi qamrovini ta'minlaydigan "Yo'l sifat nazorat" tizimini ishlab chiqish.	2024-yil iyun
<b>Moddiy texnik bazani yaxshilash masalalari bo'yicha:</b>		
25	Avtomobil transporti inspektorlari tomonidan vazn parametrlari bo'yicha o'tkaziladigan reyd tadbirlarida yuk avtotransport vositalarining vazn parametrlarini o'lechov uskunasi bilan ta'minlash (tarozi) 14 ta.	2024-yil iyun
26	Avtomobil transporti inspektorlari tomonidan mehnat va dam olish rejimiga rioya etilishini nazorat qilish uchun zarur xorijiy tajribadan kelib chiqib 70 ta zamonaviy qurilmalar bilan ta'minlash.	2024-yil iyul
27	Transport nazorati inspektorlarining ish faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida 100 ta planshet bilan ta'minlash. Bunda: Avtomobil transportida nazorat inspektorlariga – 45 ta; Yo'l-qurilishi ishlarini nazorat inspektorlariga – 30 ta; Temir yo'l transporti va metropolitenda nazorat inspektorlariga – 25 ta.	2024-yil davomida
28	Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Amir Temur 1-tor ko'chasi, 6-uy manzilidagi binoning Transport nazorati inspeksiyasi faoliyatini olib borishi uchun ajratilgan xonalarini xatlovdan o'tkazish va ta'mirlash.	2024-yil avgust
29	Transport nazorati inspeksiyasining markaziy apparati va hududiy bo'limlarida mavjud kompyuter texnikalari (shu jumladan noutbuklar), nusxa ko'chiruvchilar, UPS va boshqa tegishli barcha elementlarning holati yuzasidan to'liq xatlov o'tkazish va yangilash choralarini ko'rish.	2024-yil sentabr

T/r	Chora-tadbirlar	Ijro muddati
<b>Faoliyat ochiqligini ta'minlash masalalari bo'yicha:</b>		
30	Transport nazorati inspeksiyasining faoliyatiga daxldor ma'lumotlar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va yangiliklarni rasmiy veb saytga joylashtirish.	Yil davomida, muntazam ravishda
31	Sohada amalga oshirilayotgan vazifalar, erishilgan ko'rsatkichlar hamda dolzarb vazifalar yuzasidan ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish.	2024-yil davomida
32	Ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan Transport nazorati inspeksiyasi faoliyatiga daxldor masalalar va murojaatlarga munosabat bildirish.	Doimiy ravishda
33	Toshkent davlat transport universiteti talabalarida respublikamizning transport sohasidagi yirik tashkilotlar faoliyati haqida tasavvurini yanada boyitish, sohada olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-texnologik islohotlarni ularning ongiga yanada chuqurroq singdirish, ulkan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida davra suhabatini o'tkazish.	2024-yil 13-fevral
<b>Ijro intizomi masalalari bo'yicha:</b>		
34	Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holatini yig'ilishlarda muhokama qilish, topshiriqlarni to'liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta'minlamagan mas'ul xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralarini qo'llash.	Har oyda, doimiy ravishda

Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'i

J.Karimov